

## MUSICAL LANGUAGE OF SYMPHONIC WORKS OF COMPOSER ANTONIN DVORJAK

**Sariboyeva Ruxsora**

Department of History and Criticism of Music

2nd year Art Studies

**GA Tursunova**

Supervisor: Associate Professor of "History and Criticism of Music", Ph.D.,

**Abstract:** Antonin Dvořák, together with Bedřich Smetana, is a brilliant representative of the Czech school of composition. His work is notable for a variety of genres - symphonies (the most famous - in the minor "New World" op.95, 1893), string quartet, operas (the most famous - "Mermaid"), symphonic poems, songs, mass, piano works and instrumental concerts. Brahms once wrote of the cello concerto of the most famous author among music lovers, the minor op.103: "If I had known that a cello could do such a thing, I would have written it myself."

**Keywords:** Antonin Dvořák, symphonic poems, songs, mass, piano works, music lovers

## KOMPOZITOR ANTONIN DVORJAK SIMFONIK ASARLARINING MUSIQIY TILI

**Sariboyeva Ruxsora**

O'zDK "Musiqqa tarixi va tanqidi" kafedrası

2-kurs "San'atshunoslik" yo'nalishi bosqichi

**G.A.Tursunova**

Ilmiy rahbar: "Musiqqa tarixi va tanqidi" kafedrası dotsenti, s.f.n.,

Antonin Dvorjak Bedřich Smetana bilan birgalikda chech kompozitorlik maktabining yorqin vakili hisoblanadi. Uning ijodi turfa janrlar bilan e'tiborlidir - simfoniya (eng mashxuri - mi minor "Yangi olamdan" op.95, 1893 y.), torli kvartet, operalar (eng mashxuri - "Suv parisi"), simfonik poemalar, qo'shiqlar, messalar, fortepiano asarlari va cholg'u kontsertlari. Musiqqa shinavandalari doirasida eng mashxur muallifning si - minor op.103 violonchel kontserti haqida o'z davrida I.Brams quyidagilarni yozib qoldirgan edi: "Agar violonchel shunday narsaga qodir ekanligini bilganimda o'zim shu kontsertni yozgan bo'lar edim".

Darhaqiqat, A.Dvorjakning dunyo musiqqa madaniyatiga qo'shgan katta hissasi bu uning milliy simfonizmga asos solgan betakror simfoniylari, violonchel va orkestr uchun kontsert va kamer-cholg'u asarlari (trio "Fikrlar"). Dvorjakning ko'p asarlari o'zining quvnoqligi, iliq lirikasi, yumshoq musiqiy xazil tavsifi bilan chech tabiati va kundalik xayotidagi tasvirlarga hamohang. O'ziga xos chech ertaklar va afsonalar dunyosi "vodyanoy", "napivzoryanitsiya" va boshqa simfonik poemalarida muhrlanib qoldi.

A.Dvorjak chech va morav folkloridagi janrli va ritm ohanglari xususiyatlardan keng foydalangan. O'ziga xoslik xususiyatlari "shox va ko'mirchi" komik operasida, xor va orkestr uchun yozilgan "Oq tog' merosxo'rlari" vatanparvarlik madhiyasida va vokal "moravskiy duet" larda; ayniqsa, yorqin milliy musiqiy tavsifga ega bo'lgan "slavyan raqslari" da (avval, 4 qo'l fortepiano uchun, keyin orkestr va boshqa cholg'ular uchun) va "slavyan rapsodiyalari" da yorqin ifodasini topdi.

Milliy musiqqa, folklor an'alariga bo'lgan yaqinligi uning tug'ilib, o'sib ulg'aygan joylari bilan bog'lik.

Antonin Dvorjak 1841-yil 8-sentabrda Praga yaqinidagi Nelogezeves qishlog'ida tavallud topgan. Ular oilada 8ta bo'lib Dvorjak to'ng'ich farzandi edi. Kompozitor umrining ko'p qismini Nelogezevesda yashagan. Otasi Frantisek Dvorjak qassob va shu bilan birga zitlatning professional ijrochisi bo'lgan. Dvorjakdagi musiqiy iste'dodini ko'rgan ota-onasi uning qobilyatini imkom qadar erta rivojlantirishga qaror qilishdi. 6 yoshida Dvorjak qishloq musiqqa maktabiga borishni boshlaydi. Uning ustozlari mahalliy cherkov organchisi edi. 1854 - 1857 - yillarda Zlunitsadan fortepiano, organ va alt cholg'ularini chalishni hamda musiqqa nazariyasini

o'rganadi. Bir necha yillar davomida Dvorjak Praga organistlar maktabida tahsil olib, asta-sekin vertioz mohir skripka va alt ijrochisiga aylanadi. Yillar davomida chexiya Teatrining orkestrida skripka ijrochisi sifatida faoliyat yuritadi.

1871-yilda esa musiqa yozish bilan to'liq shug'ullanish maqsadida orkestrni tark etadi. Bu vaqtda kompozitor o'zining shogirdlaridan biri muhabbati Jozefine Chermiyakovaga bag'ishlab "Kiparislar" vokal to'plamlaridan birini bag'ishlab yozadi. Shu yillarda Dvorjakning kompozitorlik iste'dodi keng tan olinadi, u Sankt cherkovida organchi bo'lib ishlay boshlaydi. 1875-yilda u 2 torli kvintet ustida ish olib boradi. 1877-yilda tanqidchi Eduard Xanslik tufayli kompozitor Brams e'tiboriga tushadi. Dvorjak ijodi Brams va Zimrok turtkisi tufayli slavyan qo'shiq to'plamlarini nash etirib, sekin asta mashhurlik cho'qisiga erishadi. Uning chet elda ilk ijro etilgan asari bu "Stabat mater" bo'ladi. Bu asar ingliz tinglovchilari tomonidan yuqori baholangan. Mazkur asar bir necha yillar davomida turli mamlakatlarda ijro etilib shuhrat qozongan.

Kompozitor asarini odatda o'zi dirijorlik qilgan. 1891-yilda Kembrij universitetining faxriy unvoniga sazovor bo'lib, huddi shu yili o'zining "Rekviyem" asarining premyerasi bo'lib o'tdi. 1892-yildan 1895-yilga qadar Nyu-Yorkning milliy musiqiy Konservatoriyasida direktor lavozimida faoliyat yuritdi. Bu yerda u 1 - afroamerikalik kompozitor Xarli Berli bilan uchrashdi. Ijodiy aloqalarning mahsuli sifatida 1893-yilda kompozitor o'zining eng mashhur simfoniyalaridan biri "Yangi dunyodan" nomli 9 - simfoniyasini yozadi. Yevropadan Chexiyaga qaytgan so'ng kompozitor umrining so'nggi yillarini opera va kamer musiqa asarlarini yozishga ijodiy kuchini sarflaydi.

Kompozitorning simfonik asarlarining tili, o'zining betakror musiqiy ko'rinishi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maqolamiz doirasida bunga alohida e'tibor qaratmoqchimiz.

Ma'lumki kompozitor o'z ijodida turli janr va shakllarga murojaat qilgan. Bularning ta'siri simfonik asarlarni talqinida ifodasini topdi. Xususan, muallifni qalamiga mansub 9 ta simfoniyalari L. Betxoven asarlari singari klassik andozaga tayanadi, shu bilan birga ularni tarkibida XIX asr o'rtalarida shakllana borayotgan simfonik poemaning xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Ayrim asarlarida kompozitor Rixard Vagnerning ta'siri ham seziladi.

Bu jihatlari bilan A. Dvorjak musiqasi bir tomondan vena klassik maktabi elementlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan romantizm davriga xos bo'lgan milliy maktablarni shakllanishining bosh qirralari- chex xalq musiqa va ritmlari orqali folklorga yaqinligini isbotlash ko'zga tashlanadi.

O'zining dastlabki simfoniyalarida kompozitor Motsart va Betxovenga yaqinligini namoyon qilsa, 1873 yildan s'ng yaratilgan simfonik asarlarida milliy musiqaning ta'siri boshchilik qiladi Aynan bu borada kompozitorni mashhur qilgan ikki to'plam- «Slavyan raqslari» va qo'shiqlari klassik andozadan uzoq.

Kompozitorni umuman folklor bilan qiziqishi o'z vaqtida Amerikada hindular va qora tanlilar madaniyati bilan qiziqishida namoyon bo'ldi va yaratgan asarlarida o'z o'rnini egalladi. Hayotining so'nggi damlarida kompozitor asosan dasturli asarlar yozishga e'tiborini qaratib, 1900 yili "Rusalka" operasini yozadi. Bu borada kompozitor, Bedrjix Smetana boshlagan ishni munosib davomchisi sifatida milliy chex musiqasini yaratishga o'zining ulushini qo'shib keldi. Nemis romantiklar misolida ularni Rixard Vagner va Iogans Brams kabi bir cho'qqida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, kompozitorning ko'plab asarlari muallif tomonidan raqamlashtirilib tartibga keltirilgan. Biroq, birinchi simfoniyasini yo'qolishi va A.Dvorjak simfoniyalarini nashriyotchilar tomonidan qayd qilishda qo'yilgan xatoliklar, ularni davriy tasnifida chalkashliklarni yuzaga keltirdi. Ilk bor kompozitorning barcha asarlari xronologik ketma-ketlikda Ya.Burgxauzer tomonidan 1960 yili nashr yuzini ko'rgan "Antonin Dvorjak. Tematik katalog. Bibliografiya" kitobida o'rin oldi (Praga). Ayni vaqtda A.Dvorjak asarlarini nashriy ko'rinishida, uning ma'lumotlari berilganida, shu ro'yxatni tuzgan muallif familiyasiga qarab, qisqartirilgan katalog nomeri beriladi (lotin harf bilan boshlangan B - nem. Burghauser ma'nosini anglatadi. Masalan, Simfoniya № 9 op. 95 — B.178). Biroq ushbu tasnifot bilan birga opuslarni belgilashga, kontsert dasturlari va afishalarida Dvorjak asarlarini an'anaviy raqamlash usuli ham uchrab turadi

Hayotiylik davrida Dvorjakni oxirgi 5 ta simfoniyasi nashr qilingan edi, avvalgi uchtasi esa keng tinglovchilar e'tiboriga havola qilinib, ijro qilingan. Birinchi simfoniyasi esa bedarak yo'qolgan.

Dvorjakning cholg'u musiqasi mazmun chuqurligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Musiqiy boyligi va emotsional soddalik, bir vaqtni o'zida musiqiy obraz qat'iyatligi va mantiqli asarlarning matnida mujassam etilib, olovli temperament, yorqin ritmlarning samimiy dil izhori bilan taqqoslanadi. Kompozitor cholg'u asarlarida ovozlarni polifonik, tiniqligi, garmonik tilining moslashuvchanligi, cholg'uning melodik

xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanishni namoyon qilib, har bir cholg'uning tembr bo'yoqlarining rang - barang jilvasi bilan birga to'liq orkestr jarangini ko'rsata olishi mumkin edi. Uzoq vat davomida kompozitorni dasturli asarlarga murojaat qilmagani uning cholg'u musiqasining ifodaviylik kuchini, obrazlik qirralarini shakllanishiga zamin yaratib berdi.

Kompozitor simfoniyalari misolida sonata - simfonik turkumning hayotiyliigi, shu bilan birga List - Wagner poemalariga xos badiiy kenglikni ifodalab berildi. Sonato allegro tamoyillarini qo'llashda kompozitor o'ta topqirlik qobiliyatini yo'lga solib, dramatik konfliktni ochishda mahorat bilan foydalanadi. Mazkur shaklni kompozitor ko'pincha simfoniyalarni chekka qismlarida ishlatib erkin talqin qiladi. (№4 simfoniya yoki №5 simfoniya finali misolida shuni ko'rish mumkin). Ushbu qismlarning obraz doirasi ko'pqirrali va asosan dramatzmga asoslangan shu bilan lirik, epik va qaxramonlik olamlarini yoritadi. Sonata turkumli asarlarning ilhomli o'rta qismlari ham, kamer-cholg'u asarlar ham simfonik asarlarga xosdir. Ushbu qismlarda katta kompozitorning qalbi va insoniylik tavsifi ochib beriladi. Temperament, jo'shqin shiddat uning skerso qismlarini belgilab, chex xalq raqslari, furiantning yorqin ritm usullariga asoslangan.

9 ta simfoniyalarini kompozitor 1865 - 1893 yilga qadar yozadi. Boshlang'ich o'n yillik ichida birinchi to'rttasi yozilgan bo'lsada, o'ziga talabchan bo'lgan muallif ularni chop etishdan bosh tortadi (faqat uning vafotidan so'ng chop etildi). 1875 yili kompozitor №5 simfoniyasini yozadi (1879 yil), ammo nashri qisman yangilangan tahrir ostida kechroq 1888 yili №3 simfoniya F - dur op.76 kabi nashr yuzini ko'rdi. Undan so'ng №1 simfoniya D - dur op.60 (aslida №6 simfoniya yaratildi (1880) va bir yildan so'ng ijro qilindi, nashri esa 1882 yili taqdim etilgan), №2 d - moll op.70 simfoniyasi (aslida №7 simfoniya 1884, yozilib keyingi yili ijro qilindi va shu yili chop etildi), №4 simfoniyasi G - dur op.88 (aslida №8 simfoniya (1889) 1890, yilda ijro qilinib 1892 yili nashr yuzini ko'rdi), №5 simfoniya e - moll op.95 (aslida №9 simfoniya (1893) shu yilni o'zida ijro qilinib, 1894 yili chop etildi).

Ma'lumki, №1 simfoniya do - minor, kompozitorni 24 - yoshida Germaniyada o'tkazilgan maxsus tanlov uchun yozilgan. Bu asar simfonik janrni o'zlashtirishda kompozitor uchun tajribaviy bosqich bo'lib, uning iste'dodini noyob qirralarini namoyish qiladi. Simfoniya ma'lum ma'noda Betxovenning №5 simfoniyasiga yaqin bo'lib hamohangdek tuyuladi. Masalan barcha qismlarini tonallik doirasi bir xil (do - minor, lya - bemol minor, do - minor va Do - major). Simfoniyaning garmonik asosi va cholg'ulashtirish jihatlari F.Shubert uslubiga yaqin turadi. Keyinchalik kompozitor ushbu simfoniya alohida nom berib, Bogemiyaning qishloq nomini «Zloniskie kolokola» deb ataydi. Kompozitor 1853 - yil mobaynida shu qishloqda yashab istiqomat qilgan. Simfoniyaning ayrim "Siluetlar" da iqtibos qilib ishlatilgan op.8.

№2 simfoniya vatanparvarlik obrazlari, qahramonona - dramatik ko'rinishda havola qilingan. Ma'lumki, mazkur simfoniya yozilishidan sal avval kompozitor "Nasledniki Beloy gori" kantatasi "Gusitskaya uvertyura" ni yozgan bo'lib, ular bir - biriga xarakteri bilan yaqin turadi. Simfoniyaning dastlabki va oxirgi qismida ushbu uvertyuraning mavzusi iqtibos qilinganini ko'ramiz, gusit madhiyalarining ohanglari simfoniyaning ikkinchi qismida ham eshitilib turadi. Simfoniya Vataniga madhiya singari yangraydi, uning hayajonli dramatik shiddati Dvojakning №5 simfoniyasiga oldindan belgilab beradi. Shu asnosida №4 simfoniya №1 simfoniya yaqin turadi.

Mazmunan №3 va №1 simfoniyalar bir biriga yaqin turadi: quvnoq kayfiyatni tarannum etib, emotsional ochiq, lirik soddalik va quvonchni belgilaydi. Ammo №3 simfoniya pastoral, tabiat manzaralari va ularga yaqin o'ylar o'rin olib, ayniqsa, simfoniyaning birinchi qismida e'tiborga tashlanadi. №1 simfoniya esa nisbatan jasur va mardonavor. Chex xalqining madaniyati, milliy ohanglar va yorqin ritmlari ikki asarda o'z ifodasini topadi. №3 simfoniya ikkinchi qismida "o'ylash, hayol surish" kabi musiqa ifoda vositalari o'rin olib, skertsoning xazil tabiati "Slavyan raqslarini" eslatadi. №1 simfoniya ilk bor simfonik adabiyotda 3 qismi "furiant" nomi bilan berilgan. Shuningdek, yetuk Dvojak ijodiga xos yalpi tematizm bilan birlashtirish xarakati ko'zga tashlanadi.

Kompozitor hayotining so'ngi yillari yangi ijodiy g'oyalarga to'ladi. U dasturli bo'lmagan cholg'u va simfonik musiqa dasturli musiqaga yo'l ochib berdi. Dvojak o'zining tug'ilgan mamlakati afsonalarining o'ziga xos she'riyatiga asir bo'lib, Chexiya simfoniyasining milliy o'ziga xosligini tasdiqlaydigan qahramonlik janridan kam bo'lmagan asarlarni yaratadi. U o'z g'alabalarini chexiya san'atining muvaffaqiyati deb biladi. Opera, simfoniya cholg'u va vokal slavyan raqslari slavyan qo'shiqlarida chex madaniyati, uning urf - odatlari, an'analari, xalqning yashash tarzi milliy qiyofasi o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, asarlarida chexiyada bo'lib o'tgan milliy voqealarni jonlantirishga muvoffaq bo'ladi. Dvojak asarlarida tarixiy

syujetlar, xalq - qahramonlari, lirik - ishqiy harakter, samimiylik, insonparvarlik kabi mavzulari talqin etiladi. Shuning uchun kompozitor o'zining slavyan va chex qo'shiqlari, torli kvartet, kvintet, simfoniylarida chex milliy janrlarining o'ziga xos xususiyatlariga tobora ko'proq ahamiyat bergan. Hamda komik operaning milliy janrini mukammal egallashga muvoffaq bo'lgan. Dvorjak chexiya xalq ijodining ohang tomoniga e'tibor berib, folklor va kompozitor muammosi ijodida bora - bora kengayib kompozitorni dunyo miqyosiga ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Uning so'ngi simfoniylarida jazzni ham ko'rishimiz mumkin.

Dvorjak chex xalq musiqasiga asoslanib, ularni simfoniya darajasiga ko'targan. Va unga shunday urg'u berganki, professional jihatdan yuqori darajada bo'lib, Chexiya chegarasidan o'tib butun dunyoga tanishtirishga muvaffaq bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б. Левик. Музыкальная литература зарубежных стран (выпуск V) . М-1972.
2. Белза И. Антонин Дворжак Л-1949
3. Егорова Н. А. Дворжак. М-1997 .
4. Я. Лушина. Антонин Дворжак. Очерк жизни и творчества. - Музыка, 1961.